SHAVKAT RAHMONNING VATAN MAVZUSIDAGI SHE'RLARIDA ASSOTSIATIV TAHLILI VA ULARNING ASSOTSIATIV MAYDONI

Robiya Vaxobjonova
Namangan tumani 2- kasb-hunar maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada assotsiatsiya, assotsiativ maydon haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan hamda Shavkat Rahmonning vatan mavzusiga oid ayrim she'rlari assotsiativ jihatdan lingvistik va ekstralingvistik jihatdan tahlil qilingan.
Kalit so'zlar: assotsiatsiya, assotsiativ maydon, assotsiativ birlik, lingvistik omil, ekstralingvistik omil, lingvokulturologiya, lingvopoetika

Kirish: Har bir ijodkor Vatan mavzusini xoh nasrda bo'lsin, xoh nazmda o'z asarlarida tarannum etgan. "Qiyosiningni topmadim aslo",-deya A.Oripov, "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan",-deya O.Sharafiddinovlar kuylagan chog'da Shavkat Rahmonlar esa…qiynang o'z holiga qo'ymang yurakni, yashamaslik uchun yuraksiz"; "Yiqilma, o'zingni ushlagin, otsinlar jaholat toshini, labingni qattiqroq tishlagin, ko'rsatma ko'zlaring yoshini" deya olamga jar soldi. Shoir ijodida ilk o'rinda Vatan mavzusi turadi. Vatan kuychisi desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki u har bir onini o'z Vatanining hurligini, ozodligini ko'rmoq uchun yashadi. "Mening har qadamim o'limga qarshi",-deya Vatanim hurligini ko'rmasdan o'lmam,- deganday go'yo. Qirq olti yillik umri davomida o'z millati kelajagi, ravnaqi, ertangi rivoji uchun qayg'urgan , qolaversa boshqalarni-da bu yo'lda qayg'urishga majbur qilgan shoir edi. Uning ijodida Vatan mavzusi yetakchi o'rinda turadi. "Turkiylar", "Xirgoyi", "Nodirajon,Shoirajon", "Ozodlik qo'shig'i", "O'shkent lahzasi", "Buxoroda", "Labi xovuz"da, "Borganimda har safar O'shga", "O'sh tog'lari", "Sharhi xol", "Eski she'r" singari ko'plab she'rlari ayni shu mavzuga bag'ishlangandir. Yozuvchi, tarjimon, ssenarist Nurulloh Muhammad Raufxon shunday yozadi: "Shavkat Rahmon yo'lchi shoir edi. Otamiz Odam (alayhissalom) boshlab bergan va har bir Odam bolasi tug'ilganida kesiladigan kindigidan uzanib to abadiyatlar qa'riga ulashib ketadigan u olis yo'lga-Vatanga eltadigan yo'lga tushgan shoir edi. Ilk("Rangin lahzalar") kitobining birinchi she'rini oxirgi("Saylanma") kitobining oxirgi she'riga bog'lab turgan narsa mana shu yo'lchilikdir. Qolgan barcha she'rlari ham, ayrimlari to'g'ridan-to'g'ri, ayrimlari aylanma so'qmoqlar bilan mana shu yo'lchilikka qandaydir miqdorda va shaklda bog'langandir. Kichkinagina yurakka siqqan ulkandan-ulkan Vatanning zamonlar ichidagi bir parcha qora tarixidan xabari bor kishilar bunday qarashda oddiy va jo'n bir manzara chizgisi bo'lgan bu holatni yurak-yurakdan boshqacha va teran his qilishadi. **Masalan:**

Ko'zningizni oching, qo'rqmang, ziyodan qamashsin, og'risin, mayli,
mayliga yashamoq bo'lsin qiyinroq, ochiqligi tufayli, …
satrlarining Shavkat Rahmon ijodi o'zak masalasiga- Vatan mavzuiga bog'liq joyi yo'qmi? Bor! Bor bo'lganidayam to'g'ridan-to'g'ri bog'lanadi".

Biz quyida shoirning ayni shu mavzudagi bir necha she'rlarining assotsiativ jihatdan tahliliga to'xtalamiz.

"Jangda o'lgan emas biror bahodir"
Jangda o'lgan emas biror bahodir,
bari halok bo'lgan xiyonatlardan,
toshday uxlaganda to'shlarin ochib
yo zahar qo'shilgan ziyofatlardan.
Biror asotirda baxodirlarni

hattoki yuzboshli ajdar yemagan,
ming bir sinoatli yalmog'izlar ham,
Bari halok bo‘lgan xiyonatlardan,
bariga orqadan sanchilgan xanjar.
Shunday bo‘lib kelgan azal-u azal
mana shu jafokash, ko‘hna Vatanda.
Har gal bahodirlar yiqilar ekan
Kurakka sanchilgan nomard tig'idan,
Qayta tirilganday bo‘lardi nogoh
Har bir bolakayning qorachig'ida.
Ishongil, hech qachon seni aldamas
sofdil elatlarning asotirlari,
birorta bahodir o‘lganmas jangda,
qo‘rqoqlar o‘ldirgan bahodirlarni.

Shoirning ushbu she'rini lingvistik omillar natijasida hosil bo‘lgan assotsiatsiyalarga bo‘lgan holda tahlil qilamiz.

Leksemalarning semantikasiga asoslangan assotsiatsiyalar.

Jang, bahodir, xiyonat, ajdar, yalmog'iz, dev, qo‘rqoq, xanjar, zahar singari so‘z shaklidagi leksemalar ongda mavjud bo‘lib, uni eshitganda u bilan bog'liq assotsiatsiyalar paydo bo‘ladi. Masalan, *jang-urush maydoni, bahodir-qo‘rqmas, xiyonat-gunoh, ajdar-og'zidan olov chiqaruvchi maxluq, yalmog'iz-badbashara sehrgar,dev-qop-qora, yo‘g'on ovozli, qo‘rqoq- oriq, yuraksiz, har narsadan qochib yuruvchi, xanjar-qilich, jang, zahar-qizil,o‘lim, bo‘g'ilish* assotsiatsiyalarini paydo qiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, yuqoridagi assotsiatsiyalar jamoaviy xususiyatga ega bo‘lib, har bir yoshda, har bir millatda turlicha bo‘lishini ham yodimizdan chiqarmasligimiz lozim. Yuqoridagi birliklar bevosita antonimik munosabatdagi juftlarini ham yodga soladi: *zahar-asal, bahodir-qo‘rqoq, jang-tinchlik, yalmog'iz- farisht*a juftliklari hosil bo‘lib o‘zaro antonimik assotsiatsiyalardir.

Assotsiatsiyalarning yana bir xususiyati bir uyaga mansub so‘zlarni birlashtiradi. Masalan, she'rdagi *yalmog'iz, dev, ajdar* leksemali bir uyaga mansub bo‘lib, so‘z shaklidagi mavhum otlar bilan ifodalangan assotsiativ birliklardir. To‘sh, kurak, qorachiq leksemalari butun - qism munosabatidagi birliklardir. Ya'ni inson tana a'zolaridir. She'rdagi deyarli barcha leksemalarni semantic jihatdan tahlil qilishimiz mumkin, ammo biz ayrim so‘zlar misolida ko‘rib chiqamiz. *Xiyonat* leksemasining lug'aviy ma'nosida semantik assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Bevafolik, o‘zga inson bilan ketish, it vafo- xotin jafo, janjal, aldov, tarsaki, telefon, xabar, qo‘ng'iroq kabi assotsiatsiyalar yuzaga kelishini kuzatdik. Bu birliklardan *bevafolik, janjal, aldov, tarsaki, telefon, xabar, qo‘ng'iroq* leksemalari so‘z shaklidagi; *o‘zga inson bilan ketish* so‘z birikma shaklidagi, *it vafo- xotin jafo* frazeologik birlik shaklidagi assotsiatsiyalardir.

Yuqorida aytganimizdek bu assotsiatsiyalar jamoaviy ko‘rinishdagi birliklarga mansub bo‘lib, individual assotsiatsiyalar esa har bir shaxs ongida alohida semalarni vujudga keltiradi. Masalan, xiyonat so‘zi erkak kishi ongida: *ayol, mensimaslik, telefon, shartakilik, betgachoparlik, pardoz, yangi liboslar, janjal, bolalar yig'isi* kabi assotsiatsiyalarni chaqirishini tahlillar natijasida aniqladik. Ayol kishi ongida esa: *boylik, beparvolik, telefon, uyga kech kelish, dunyoni suv bossa o‘rdakka ne g'am, janjal, pulsiz qiynalish* singari assotsiatsiyalarni hosil qiladi. Ya'ni individual assotsiatsiyalar har bir shaxsning yoshi, jinsi, millati, dini, ijtimoiy holati, kasbidan kelib chiqqan holda turfa ko‘rinishda bo‘ladi.

O‘lmoq leksemasining lug'aviy tarkibida esa: *o‘lim, aza,qora libos, tobut, qabr, yig'i, narigi dunyo, dod-voy, o‘lim haq, kafan* kabi leksemalarni ergashtiradi.

Zahar leksemasining semantik tarkibida esa og'u, o'lim, bo'g'ilish, qizil rang, zaharli ilon, ilon zahri, zahar zaqqum kabi leksemalar paydo bo'ladi. Ushbu yuqoridagi namunalardan ko'rinadiki, leksemalarning semantik xususiyatlari ongimizda turli xil assotsiatsiyalar hosil bo'lishiga olib keladi.
Leksemalarning uslubiy belgisiga asoslangan assotsiatsiyalar. *Bahodir, asotir, sinoatli, jafokash, nogoh, sofdil* leksemalari badiiy uslubga xosligi bilan; *jang, yalmog'iz, ajdar, dev, xiyonat* kabi leksemalar esa so'zlashuv uslubiga xosdir.
Leksemalarning pragmatik belgisiga asoslangan assotsiatsiyalar. Bunda *nomard* leksemasi *mard* leksemasini yodga tushirib, pragmatic belgini hosil qiladi. Bir qarashda bu leksema antonimik munosabatdagi assotsiatsiyaga o'xshaydi, ammo ijobiy-salbiy baho munosabatining ifodalanganligi uchun pragmatic belgi asosidagi assotsiatsiyadir. She'rdagi xiyonat-sadoqat, bahodir-qo'rqoq, zahar-asal kabi assotsiatsiyalar lug'aviy ma'nosi tarkibida zidlik bilan birga ijobiy va salbiy baho ham mavjud. Shunga ko'ra yuqoridagi birliklarni pragmatik belgi asosidagi assotsiatsiyalar deya olamiz.
Leksemalarning gender xususiyatiga asoslangan assotsiatsiyalar. She'rdagi bahodir leksemasi o'z navbatida erkak kishiga ishora qilgan. Yalmog'iz leksemasi esa semantik jihatdan lug'aviy ma'nosi tarkibida ayol semasi yotadi. Shuning uchun bu so'zni eshitganimizda ayol obrazi ongimizda paydo bo'ladi. Aslida yalmog'iz leksemasi semalarining tarkibida ayol semasi ham mavjud bo'lib, turli til egalari ongida turlicha tasavvur bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda yalmog'iz, bahodir leksemalari bilvosita gender xususiyatga asoslangan deyishimiz mumkin.
Makondagi aloqadorlikka asoslangan assotsiatsiyalar. Xanjar, tig', yiqilar, o'ldirgan,halok bo'lgan, sanchilgan leksemalari ayni paytda jang maydoniga ishora qilgan holda makon bilan bog'liq assotsiatsiyalarni hosil qiladi.
Leksemalarning belgisiga asoslangan assotsiatsiyalar. Yuzboshli ajdar, ko'hna Vatan, narsa va unga xos belgi xususiyatni anglatsa, toshday uxlaganda so'z birikmasi esa shaxs va uning ayni paytdagi holatiga asoslangan assotsiatsiyalardir. Bahodir leksemasi esa shaxs va unga xos harakter-xususiyatni aks ettirgan.
Insonning voqelikka munosabatiga asoslangan assotsiatsiyalar. Jang-o'lim, halok bo'lish; ajdar-olov; xiyonat-sharmandalik; qo'rqoqlik-doim insonlardan panada yuruvchi; yalmog'iz- yamoq kiyim kiygan, badbashara ayol; dev- baland bo'yli, bahaybat, yo'g'on ovozli maxluq.
O'xshashlikka asoslangan assotsiatsiyalar. Toshday uxlaganda birikmasi tosh kabi qattiq uyquga ketgan kishi ma'nosini beradi. Shuning uchun o'xshatish asosi mavjud, ammo o'xshatish subyekti mavjud bo'lmasa-da, bizning ongimizda "hech narsa bilan uyqudan uyg'otib bo'lmaydi" degan assotsiatsiyalar hosil bo'ladi.
Egalik-tegishlilikka asoslangan assotsiatsiyalar. Toshlarin, kurakka, qorachig'ida kabi leksemalar bevosita inson bilan aloqadorlikdagi assotsiatsiyalardir. Xanjar leksemasi esa o'z navbatida jangchiga qarashlilikni bildiradi.
Sabab-natija munosabatiga asoslangan assotsiatsiyalar. Zahar qo'shilgan, sanchilgan, xanjar, sanchilgan tig'idan so'z birikmalari bevosita o'lim assotsiatsiyalarini chaqirib, sabab-natija munosabatini vujudga keltiradi.
Xulosa. Shoir "Ko'zingizni oching, qo'rqmang,
ziyodan qamashsin, og'risin, mayli,
mayliga yashamoq bo'lsin qiyinroq ochiqligi tufayli" deya jar slogan bir paytda o'z Vataniga xiyonat qilayotgan pana-panada orqadan "xanjar" urayotganlarga ishora o'laroq yozilgan she'rdir bizningcha.

Foydalanilgan adabiyotlar:

D.Xudoyberganova. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi- Toshkent,2017.
D.Lutfullayeva. Leksikani mazmuniy maydon asosida o'rganish muammolari-Toshkent,1996.
Sh.Rahmon. Abadiyat oralab,- Toshkent-2012; B-59.
M.Yo'ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi.-Toshkent,2008.
T.Qudratov, T.Nafasov. lingvistik tahlil-Toshkent,1981.